



TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI REKTORINING B U Y R U G ' I

10.10.2025

209-um-son

Toshkent davlat yuridik universitetining Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasini yangi tarkibda tasdiqlash xaqida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan hamda Toshkent davlat yuridik universitetining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishda savdolarining ochiq va shaffofligini, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sifati, bahosining muvofiqligi hamda kafolatlanganligini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Toshkent davlat yuridik universitetining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni maqsadli savdolarning ochiq va shaffofligini, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sifati, bahosining muvofiqligi hamda kafolatlanganligini ta'minlash maqsadida Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyaning yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bosh auditor (R.Misirov) universitet ehtiyoji uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan tovar (ish, xizmat)larni xarid qilinishi, tender (tanlov) savdolari o'tkazilishini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida komissiya majlisida kuzatuvchi maqomida ishtirok etsin.

3. Toshkent davlat yuridik universiteti rektorining 2024-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasini tuzish haqida"gi 111-um-son buyrug'ining 1-bandi va ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor A.Iminov zimmasiga yuklansin.

Rektor v.v.b.



I.RUSTAMBEKOV

Toshkent shahar

Kiritildi:

Boshqarma boshlig'i

A.XUNDIBAYEV



Kelishildi:

Moliya-iqtisod ishlar bo'yicha
prorektor

A.IMINOV



Boshqarma boshlig'i

O.NAZAROV



Bo'lim boshlig'i

I.ABDUSATTOROV



Katta yuriskonsult

A.TURSUNOV



Bosh buxgalter

M.PARPIYEV



Bosh auditor

R.MISIROV

